



TEMURIYLAR DAVRI YOZMA MANBALARIDA SAMARQAND BOG'LARI TA'RIFI

Abduraximova Hushnida Xamdam qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temurning bog'dorchilik sohasidagi xizmatlari manbalar asosida tahlil qilingan. Temuriylar davri Movarounnahrda rivojlanish jarayonlari butun dunyo tomonidan e'tirof etilgan holatlardan hisoblanadi. Maqolada Amir Temur tomonidan bunyod etilgan bog'lar va ularning tasviri haqida mulohazalar o'rin olgan.*

Kalit so'zlari: *Samarqand, Klavixo, Kalbet, Ibn Arabshoh, handaq, Davlatobod, Ajam, Dashti qipchoq, Eram bog'i.*

Annotation. *This article analyzes the services of Sohibqiron Amir Temur in the field of horticulture. Development processes in Movarounnahr during the Timurid period are recognized by the whole world. The article contains comments about the gardens created by Amir Temur and their description.*

Key words: *Samarkand, Klavikha, Kalbet, Ibn Arabshah, ditch, Davlatabad, Ajam, Dashti Kipchak, Eram garden.*

Абстрактный. *В данной статье анализируются заслуги Сохибкирона Амира Темура в области садоводства. Процессы развития Моваруннахра в период Тимуридов признаны всем миром. В статье приведены комментарии о садах, созданных Амиром Темуrom, и их описание.*

Ключевые слова: *Самарканд, Клавиха, Калбет, Ибн Арабшах, ров, Давлатабад, Аджам, Дашти Кипчак, сад Ерам.*

Amir Temur vatanimiz va dunyo tarixida nafaqat harbiy yurishlari, buyuk davlat barpo etgan hukmdor, balki Movarounnahr zaminida va dunyoning ko'plab hududlarida masjidlar, madrasalar, yangidan yangi shahar-u qishloqlar barpo etgan bunyodkor hukmdor sifatida ham nom qoldirgan. Jumladan, Sohibqiron Amir Temur tomonidan Samarqand atroflarida barpo etilgan bir qancha bog'lar hozirgi kunga qadar dunyo ilm-fan jamoatchiligini hayratga solib kelmoqda. Bog' yaratish, bog'dorchilik amali insoniyat taraqqiyoti tarixidagi eng ulug' kashfiyotlardan biridir.² Temur va Temuriylar davri yozma manbalarida Samarqand bog'lari quyidagicha ta'riflangan.

Tarixdan ma'lumki, Amir Temur Samarqand atrofida so'lim go'shalarda 12 bog' barpo etgan. Bu bog'lar turli mamlakatlardan kelgan serhosil va mazali mevalar, manzarali daraxtlar, go'zal gullar, butalar, bug'u va tovuqlar va boshqa go'zal jonivorlar bilan to'lib-toshgan va ular bir-biri bilan chambarchas bog'langan edi. Bu yam-yashil va so'lim bog'larda odamlar madaniy hordiq chiqarardi, tabiat

² Baxtiyorov L.X. "Amir Temur va Temuriylar davrida bog'dorchilik rivoji"//O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 2022 334-bet.



bilan hamnafas hayot kechirardi, go'zallikdan bahramand bo'lishardi. Elchilar ushbu bayram va tantanalar o'tkaziladigan bog'larda ham qabul qilingan. Bog'larning bir qismi Amir Temurning diplomatik marosimlari uchun maxsus qurilgan. Klavixo bu bog'larda olomon bo'lishiga qaramay, nozik did, ozodalik, tartib-intizom borligini, har kimning o'z o'rni va o'rni oldindan belgilab qo'yilganligini aytganligi haqida Temuriylar davri manbalarida yozilgan.³ Klavixo o'zining esdaliklarida shunday fikrlarni yozib qoldirgan "...o'ttiz birinchi avgust, yakshanba kuni ertalab elchilarni zikr etilgan boqqa olib keldilar. Bog'ning atrofi loy devor bilan o'ralgan bo'lib, devor aylanasi to'la bir liga kelar edi. Bog'da sitrus va limondan boshqa har xil mevali daraxtlar bor edi. Unda oltita hovuz bo'lib, bog' o'rtasida anhor oqib turardi. Hovuzlar baland, soyali daraxtlar qatorasiga hosil bo'lgan yo'lak orqali bir-birlari bilan tutashtirilgan. Ushbu yashil yo'lak balandlikka tomon ko'tarilgan, xuddi shunday sersoya yo'laklar butun bog' bo'ylab utgan. Undan boshqa yo'llar qiyalab ketadi. Bog'da tuproqdan uyib yasalgan, yog'och panjaralar bilan o'ralgan usti tekis bir tepalik bor. Unda ajoyib koshona qad kutargan. Koshonaga tillo, lojuvard va rangli koshinlar bilan to'kis va mukammal sayqal berilgan. Koshona joylashgan mazkur tepalik atrofi suvga limmo-lim chuqur handaq bilan o'ralgan. Handaqda uzluksiz suv oqib turadi. Tepalik ustidagi koshonaning ikki tomonida handaqalar osha unga olib keluvchi ikkita yirik ko'prik qurilgan. Mazkur bino mustahkam qo'rg'on edi. Bog'da podshohning topshirig'i bilan olib kelingan kiyiklar va tustovuqlar boqiladi. Bog'dan yana xuddi shu bog'ning o'zidan yirik tokzorga utiladi, uni atrofi devor bilan uralgan. Keng tokzorga eshik orqali chiqiladi. Devor bo'ylab tokzor atrofida qad rostlagan baland daraxtlar safi juda chiroyli ko'rinadi. Saroy va Talisiya bog'i, ularning tilida "Kalbet"(Gulbog') deb ataladi."

Amir Temur bog'lari ikki xil bo'lgan: bog'lar va tabiiy bog'lar. Bog'lar asosan to'rtburchaklar shaklida bo'lib, ularni to'rtta teng qismga ajratadigan kanallar mavjud. Uning atrofidagi baland devorlarning har bir burchagida minoralar bor edi.⁴ Bog'i naqshi jahon, Bog'i behisht, Amirzoda Shohruh bog'i, Bog'i bo'ldu, Bog'i dilkusho, Bog'i zofoh, Bog'i baland, Davlatobod, Bog'i chinor, Bog'i nav, Bog'i Jahonno shular jumlasidandir. Tarixchi Ibn Arabshoh Amir temur bog'lari to'g'risida bunday deb yozadi: "Temur Samarqandda ko'pdan-ko'p bo'stonlar barpo qilib, baland va mustahkam qasrlar bunyod etdi. Ularning har qaysisi g'arobatli tartibda, ko'rkam va ajib suratda edi. Bo'stonlar asosini mustahkam qilib, fahomatli meva ko'chatlar bilan ularni bezadi. Ularning birini Eram bog'i, ikkinchisini Dunyo ziynati, yana boshqasini Firdavs jannati, uchinchisini Shimol bog'i, beshinchisini Oliy jannat deb atadi. Shuningdek, ba'zi joylarni buzdirib, u bo'stonlardan har biri ichida bir qasr qurdirdi. Bu qasrlarning qay biriga o'z majlislarini, o'z suratini turli shakllarda: birida kulib turgan, ikkinchisida qahrlangan, o'zi qilgan janglar tasvirlarini,

³ Uljayeva Sh. M., Nazarov H. N. "Amir Temur bog'larida diplomatik protokol marosimlari"//Xalqaro suv fanlari jurnali 2021 1512-bet.

⁴ Uljayeva Sh. M., Nazarov H. N. "Amir Temur bog'larida diplomatik protokol marosimlari"//Xalqaro suv fanlari jurnali 2021 1511-bet.



rasmiy tantanadagi suratlarini; podshohlar, amirlar, sayyidlar, ulshohlar va ulug'lar bilan suhbat qurgan majlislarini; sultonlarning uning huzurida qo'l qovushtirib turishlarini, xizmat yuzasidan boshqa mamlakatlardan huzuriga kelgan ularning podshohi sultonlarining vakillarini, o'zining ov xalqalari-yu yashirin hiylalarini, Hind, Dashti (Qipchoq) va Ajam janglarida o'z zafarlari suratini, dushmanlarining qay ahvolda yengilib qochganini, o'z avlodlari, nabiralari, amirlari, qo'shinlari suratlarini; aysh-u ishrat majlislari va sharoblari qadahlariyu qadahlari soqiylarini, o'z ulfati qo'shiqchilarining, turli maqomdagi g'azalxonlik kuychilarining, va bulardan boshqa uning bir-biriga o'xshab, ulanib ketgan, uning butun umri mobaynida o'zga mamlakatlarda voqea bo'lgan hodisalar suratini tasvirlatdi. Bular hammasi hech bir noqissiz va ziyodasiz, qay tarzda yuz bergan bo'lsa, shundayligicha aks ettirildi. Bundan maqsadi o'zining ishlaridan g'oyibona xabardor bo'lib, ularning o'z ko'zi bilan mushohada etmaganlarga yaqqol namoyon qilib ko'rsatish edi.”⁵

Amir Temur yaratgan bog'lar go'zalligini ulardagi turlituman mevali daraxtlarni va Yer yuzida mavjud bo'lgan hayvonot dunyosini o'ziga xos bo'lgan. A.Berdimurodovning «Amir Temurning Samarqanddagi bog'lari» turkum maqolalarida «Dilkusho bog'i» to'g'risida quyidagi satrlarni o'qiydiz: “Temur hijriy 788yil (1397)ning kuzida xushmanzara Konigil vohasida yangi bog' barpo etishga buyruq berdikim, u o'zining go'zalligi bilan mamlakatdagi barcha bog'lardan ajralib tursin... Samarqandda yashovchi O'rta Osiyoning eng mohir me'morlari tomonlari bir yarim ming gaz keladigan bog'ning asosiy g'ishtini qo'yidilar. Kirish yo'llarini ajratdilar. Saroyning gumbazlari naqshlar bilan bezaldi, devorlar ustki koshinlar bilan qopladi. Bog'ning to'rt burchagida katta san'at va yuksak did bilan ishlangan, ajoyib bo'yoqlar berilgan shiyponlar qurildi. Bog' chorqirra xiyobonlarga va turli shakldagi bog'chalarga bo'lindi. Temur xiyobonlarning yo'llari chetiga mevali daraxtlar, ba'zilariga gul o'tkazishni xohlardi. Bog' uning (Temurning) mayliga javob bergani uchun ham «Bog'i dilkusho» deb ataldi. Bog'ning o'rtasida baland gumbazli uch oshyonli saroy qurildi. 1404yilning sentabrida jahongir Temurning qabulida ispaniyalik elchi Klavixox bu bog'da favvoradan suv otilib turganligini, boqqa kiriladigan darvoza juda keng, yuksak oltin va boshqa qimmatbaho toshlar bilan bezatilganligini, ustiga taxtiravon o'rnatilgan oltita fil borligini yozadi.”⁶

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Temur va Temuriylar davri manbalarida O'rta Osiyoda Sharq me'morchiligi va bog'dorchiligi san'ati Amir Temur va uning avlodlari hukmronlik qilgan davrda XIV-XVI asrlarda rivojlandi. Amir Temur mo'g'ullar istilosi davrida vayron etilgan hududlarni jumladan, Samarqandni yana qaytadan rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirildi. Ko'plab bog'lar barpo etildi. Samarqand atrofidagi bog'lar o'ziga xos xususiyatlari, vazifasi va meymori jihozlariga ko'ra nom olgan. Chet eldan kelgan elchilar Amir Temurning maxsus

⁵ Ibn Arabshoh “Amir Temur tarixi”/ Tarjimon.U. Uvatov 2-kitob. T: 2019

⁶ R.Shamsutdinov, Sh. Karimov “Vatan tarixi” . T:2010



bog'larida kutib olingan. Tarixchilarning yozgan asarlarida va elchilarning esdaliklarida bog'lar tasvirlab yozilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rui Gansales de Klavixo "Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi" / Tarjimon O. Tog'ayev T: 2010
2. Ibn Arabshoh "Amir Temur tarixi" / Tarjimon.U. Uvatov 2-kitob. T: 2019
3. R. Shamsutdinov, Sh. Karimov "Vatan tarixi" . Toshkent. 2010
4. Uljayeva Sh. M. , Nazarov H. N. "Amir Temur bog'larida diplomatik protokol marosimlari" // Xalqaro suv fanlari jurnali 2021. 1511-bet.
5. Baxtiyorov L.X. "Amir Temur va Temuriylar davrida bog'dorchilik rivoji" // O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 2022. 334-bet.